

O'zbekistonning eng yangi tarixiga bag'ishlangan risola

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning ilmiy xodimlari tomonidan 2022-yilda navbatdagi davriy to'plamlar chop qilindi. Mazkur ilmiy-ommabop risolalarda O'zbekistonning eng yangi tarixidan joy olgan, 2020- 2021-yillarda ro'y bergan muhim voqealar, mamlakatimiz milliy yuksalishi va taraqqiyoti uchun siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalarida amalga oshirilgan ishlar haqidagi eng muhim ma'lumotlar qisqacha tarixiy tahlillar orqali bayon qilingan. Ushbu kitob umumta'lim maktablari, Prezident maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari va o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari hamda talabalariga mo'ljallangan. Shuningdek, risola materiallaridan O'zbekistonning eng yangi tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

